

**“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
2-son qarori**

2023-yil 24-fevral
soat 15:30

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyoosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 58-moddasi hamda jamiyat Ustaviga muvofiq 2023-yilning 24-fevral kuni yakka tartibda qabul qilindi va yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

1. “Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatining 2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakunlarini auditorlik faoliyatining milliy standartiga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdorini belgilash va u bilan shartnomaga tuzish to‘g‘risida.

2. “Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatida 2022-yil yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida.

Kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha:

“Dehqonobod kaly zavodi” AJning 2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakunlarini auditorlik faoliyatining milliy standartiga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini jalb qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq Korporativ buyurtmachilari xaridlari (exarid.uzex.uz) maxsus axborot portali orqali tanlov e’lon qilindi.

Tanlov natijalarini bo‘yicha (226976-sun lot) auditorlik tashkilotlarining tijorat takliflari Jamiyatning tanlov komissiyasi tomonidan 2023-yil 21-fevral kuni o‘rganildi.

Tanlov komissiyasining o‘rganishiga ko‘ra, “Dehqonobod kaly zavodi” AJ xo‘jalik faoliyati doirasida zarur bo‘ladigan tovar (ish, xizmat)lar uchun qiymati eng kam ish haqining besh ming baravaridan oshmaydigan davlat xaridlarini o‘tkazish uchun 226976-sun lot bo‘yicha quyidagi auditorlik tashkilotlaridan takliflar kelib tushgan:

1. MChJ shaklidagi “AUDIT-HISOB MARKAZI” auditorlik tashkiloti.
2. “AUDIT FAIR SERVICES” MChJ auditorlik tashkiloti.
3. “NAZORAT-AUDIT” MChJ auditorlik tashkiloti.
4. “Sata Audit” MChJ auditorlik tashkiloti.
5. “ZAMIN OIL-AUDIT” MChJ auditorlik tashkiloti.
6. “BUXGALTERIYA SERVICE AUDIT” MChJ auditorlik tashkiloti.

Tanlov komissiyasi tomonidan auditorlik tashkilotlarining tijorat takliflari tanlov o‘tkazish tartib-tamoyillariga asosan o‘rganib chiqilganligi va o‘rganish jarayoni videotasvirga yozib olinganligi bildirildi.

Jamiyat tanlov komissiyasining 2023-yil 21-fevraldagi yig‘ilishi bayonnomasi qaroriga asosan jamiyatning 2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakunlarini auditorlik faoliyatining milliy standartiga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish uchun tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan audit xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovda texnik topshiriq talablari bo‘yicha 87,5 ball to‘plaganligi, ko‘rsatiladigan xizmatlar narxi maqbul ekanligi (20,0 mln. so‘m) va auditor sertifikatiga ega besh nafer malakali mutaxassis (auditor)lar mavjud ekanligi sababli “Buxgalteriya service audit” MChJ auditorlik tashkiloti tanlov g‘olibi deb topilgan (*bayonnomma nusxasi ilova qilinadi*).

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi”gi Qonunining 59-moddasiga asosan majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolati doirasiga kiradi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha:

Jamiyat tomonidan taqdim etilgan axborot va ma’lumotlar asosida “Silk Capital” MChJ tomonidan 2022-yil yakunlari bo‘yicha jamiyatda korporativ boshqaruva tizimi bo‘yicha mustaqil baholash o‘tkazildi.

“Silk Capital” MChJning 2023-yil 16-fevraldagi 01/01-02-son xulosasiga asosan 2022-yil yakunlari bo‘yicha “Dehqonobod kaly zavodi” AJda o‘tkazilgan korporativ boshqaruva tizimini baholash natijalariga ko‘ra 766 ball to‘plangan hamda jamiyatning korporativ boshqaruva tizimi holati “yuqori” deb e’tirof etilgan (*xulosa nusxasi ilova qilingan*).

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):

1. “Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatining 2022-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakunlarini auditorlik faoliyatining milliy standartiga muvofiq auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish uchun “BUXGALTERIYA SERVICE AUDIT” MChJ auditorlik tashkiloti hamda ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori 20,0 mln. so‘m etib belgilansin.

2. “Silk Capital” MChJning 2023-yil 16-fevraldagi 01/01-02-son xulosasiga asosan 2022-yil yakunlari bo‘yicha “Dehqonobod kaly zavodi” AJda o‘tkazilgan korporativ boshqaruva tizimini baholash natijalariga ko‘ra 766 ball to‘plangan hamda jamiyatning korporativ boshqaruva tizimi holati “yuqori” deb e’tirof etilgan tasdiqlansin.

3. “Dehqonobod kaly zavodi” AJ boshqaruvi raisi v.b. (Usarov):

- “BUXGALTERIYA SERVICE AUDIT” MChJ auditorlik tashkiloti bilan belgilangan tartibda audit xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzsin;

- “Silk capital” MChJ tavsiyalariga asosan korporativ boshqaruva tizimini takomillashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin hamda bajarilishini qat’iy nazoratga olgan holda, ta’minlasin;

- amalga oshirilgan ishlar yuzasidan jamiyat Kuzatuv kengashiga tegishli ma’lumotlarni kiritsin.

“O‘zkimyosanoat” AJ
boshqaruvi raisi v.v.b.



V Korjikov